



Qayd №

TASDIQLAYMAN
"ShGKM" MChJ SX,SS,M va AMMB

boshlig'i-bosh mutaxassis

U. Xaydarov

"05" 08. 2024 yil



**"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJ xavfli ishlab
chiqarish obyektlarida amalga oshirilgan va amalga
oshirilishi rejalashtirilayotgan ishlarning loyiha xujjatlarini Sanoat
xavfsizligini ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha**

TEXNIK TOPSHIRIQ

ShGKM 2024 y.

1. Umumiy ma'lumot

1.1 Nomlanishi.

“Shurtan gaz kimyo majmuasi” MChJ xavfli ishlab chiqarish obyektlarida amalga oshirilgan va amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ishlarning loyiha xujjatlarini (Keying matnda -loyiha hujjatlari) Sanoat xavfsizligini ekspertizasidan o'tkazish.

1.2 Asos.

O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 28 sentabrdagi “Sanoat xavfsizligi to'g'risidagi” 57 sonli qonuni 15 moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 02 oktabrdagi 784 sonli “Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazish va ekspertiza xulosasini berish” to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarori hamda SX va TN xizmatining 2024 yilda xarid qilinadigan XIZMATLAR uchun yillik buyurtmasiga asosan.

1.3 Sanoat xavfsizligi ekspertizasidan o'tkazishdan maqsad.

Sanoat xavfsizligi ekspertizasi, ekspertiza obyekti ya'ni loyiha xujjatlarini sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligini baholash.

Ekspertiza obyektiga taalluqli tegishli hujjatlarning to'liqligini va ishonchliligini tekshirish.

1.4 Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazilishi kerak bo'lgan loyiha hujjatlari (ekspertiza obyekti)ning nomi:

1. Схема регенерации осушителя этилена FF-2202 А/В из газообразного метана на азот. (Цех производства полиэтилена. Установка 2200). **Варақлар сони 4 та.**
2. Строительство объектов внешнего газоснабжения Шуртанского ГХК. **Варақлар сони 7 та.**
3. Монтаж дополнительного резервуара FB-2443. (Цех производство полиэтилена. Установка 2400). **Варақлар сони 22 та.**
4. Схема монтажа запорной арматуры на линии входа регенерационного газа к осушителям природного газа FF-1801А/В/С. Цех производство этилена. Установка 1800. **Варақлар сони 5 та.**
5. Схема монтажа обратного клапана на линии входа диэтанолamina (12”P-17059-B1MR-T) К абсорбционной колонне DA-1701. **Варақлар сони 4 та.**
6. Схема монтажа шарового крана на линии входа тракта «С» к холодильной камери PA-1301. Цех производство этилена. Установка 1300. **Варақлар сони 4 та.**
7. Схема монтажа байпасной линии для трактов “А”, “В” “С”, “D” холодильной камери PA-1301. Цех производство этилена. Установка 1300. **Варақлар сони 6 та.**

1.5 Xizmat ko'rsatish joyi.

O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Shurtan qo'rg'oni “Shurtan gaz kimyo majmuasi”

2. Xizmat ko'rsatishga umumiy talablar.

Sanoat xavfsizligi ekspertizasini amalga oshiruvchi ekspert tashkiloti belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, shuningdek attestatsiyadan o'tkazilgan mutaxassislari bo'lishi kerak.

Ushbu ishlarni bajarish Ekspert tashkilotining akkreditatsiya sohasi hamda ishlarni bajaruvchi ekspertlarning attestatsiya sohalarida ko'rsatib o'tilgan bo'lishi shart.

Bajarilishi kerak bo'lgan ishlar O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 28 sentabrdagi Sanoat

xavfsizligi to'g'risidagi 57-sonli qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 02 aktyabrdagi 784-sonli "Sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazish va ekspertiza xulosasini berish" to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qaroriga muvofiq ishlar olib borilishi shart.

3. Ekspertizadan o'tkazish tartibi.

Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni uch ish kuni davomida dastlab baholash.

Taqdim etilgan hujjatlarni dastlabki baholash natijalari salbiy bo'lsa, ekspert tashkiloti bir ish kuni davomida buyurtmanomani ko'rib chiqish rad etilgan asosli sabablar ko'rsatilgan bildirishnomani buyurtmachiga yuborish.

Buyurtmanomani ko'rib chiqishning rad etish sabablari buyurtmachi bilan kelishilgan muddatlarda bartaraf etilmagan holatlarda ekspert tashkiloti taqdim etilgan hujjatlarni ilova xati bilan qaytaradi.

Taqdim etilgan hujjatlarni dastlabki baholash natijalari ijobiy bo'lsa, ekspert tashkiloti o'n ish kuni davomida buyurtmachi bilan ekspertizani o'tkazish shartnomasini rasmiylashtiradi.

Ekspert tashkiloti buyurtmachi shartnomada belgilangan miqdordagi to'lovni to'lagandan so'ng ekspertiza ob'ektini baholashga kirishadi.

Ekspertizani o'tkazishda taqdim etilgan hujjatlarda nazarda tutilmagan, ammo sanoat xavfsizligi talablariga muvofiq bajarilishi shart bo'lgan ishlar hajmlari aniqlangan holatlarda, bu ishlar shartnomaga qo'shimcha bitim asosida bajarilishi mumkin.

Ekspertizani o'tkazishda nomuvofiqliklar va kamchiliklar aniqlangan hollarda, ekspert tashkiloti bir kun muddatda sanoat xavfsizligi ekspertizasini o'tkazishda aniqlangan nomuvofiqliklar hamda kamchiliklar to'g'risida protokol rasmiylashtiradi.

Nomuvofiqliklar va kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari buyurtmachi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Ekspertiza jarayonida taqdim etilgan hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilganda, aniqlangan nomuvofiqliklar va kamchiliklarni bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirish imkoniyati bo'lmaganda, buyurtmachining tashabbusi bilan uning yozma murojaati asosida ekspertizani o'tkazish jarayoni vaqtincha to'xtatilishi mumkin.

4. Sanoat xavfsizligi ekspertizasini o'tkazish muddati.

Ekspertizani o'tkazish muddati ekspertiza obyektining murakkabligiga qarab belgilanadi, ammo bu muddat sanoat xavfsizligi sohasidagi qonun hujjatlari va normativ texnik hujjatlarga muvofiq zarur bo'lgan materiallar va hujjatlar to'plami olingan hamda ekspertizani o'tkazish bo'yicha boshqa barcha shartlar bajarilgan kundan boshlab **uch oydan** oshmasligi kerak.

5. Ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish talablari.

Ekspertiza xulosasi quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

- kirish qismi - bunda ekspertiza maqsadlari, ekspertizani o'tkazish asoslari (ekspertizani o'tkazish shartnomasi), ekspert tashkiloti to'g'risida ma'lumotlar, ekspertizani o'tkazgan ekspertlar va mutaxassislar haqida ma'lumotlar, buyurtmachi haqida ma'lumotlar, qo'llaniladigan qisqartmalar ko'rsatilishi kerak;

- asosiy qism - bunda ekspertiza xulosasining ta'siri joriy qilinadigan ekspertiza ob'ektlarining ro'yxati, ekspertizani o'tkazish jarayonida ko'rib chiqilgan hujjatlar haqida ma'lumotlar, ekspertiza

ob'ekti to'g'risida ma'lumotlar, o'tkazilgan ekspertiza natijalari, sanoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalar keltiriladi;

natijalar – bu qismda ekspertiza ob'ektining sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi haqidagi xulosalarni o'z ichiga olishi kerak.

6.Xizmat ko'rsatish natijalarini topshirish va qabul qilish.

Ekspertiza natijalari ijobiy bo'lganda bir ish kuni davomida ijobiy ekspertiza xulosasi rasmiylashtirish. Ekspertiza xulosasining asl nusxasi va taqdim etilgan hujjatlar ekspertizani o'tkazish uchun shartnoma shartlari haqiqatdan bajarilganda buyurtmachiga berish.

Ekspertiza xulosasining nusxasini uch ish kuni davomida ekspert tashkiloti tomonidan vakolatli organga belgilangan tartibda yuborish.

Ekspertiza xulosasining nusxasi ekspertizani o'tkazgan ekspert tashkilotida va vakolatli organda saqlanadi.

7.Ekspert tashkiloti tomonidan taqdim qilinadigan hujjatlar ro'yxati.

Ekspert tashkilotining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;
Ekspert tashkilotining akkreditatsiya attestati;
Akkreditatsiya attestatining tegishli akkreditatsiya soxasi ko'rsatilgan ilovasi;
Sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspertlarning attestatsiya sohalari ko'rsatilgan ekspert guvohnomasi;
Ekspertizadan o'tkazish uchun berilgan narxning kal'kulyatsiyasi (Qo'shimcha qiymat solig'ini ko'rsatgan holda).

Ishlab chiquvchilar:

SX va TN xizmati boshlig'i

Z. Tursunov

Bosh muhandis o'rinbosari-
IBX boshlig'i:

T. Diyorov

SX va TN xizmati yetakchi muhandisi:

A. Abdiyev

MTRB guruhi muhandisi:

Sh. Bozorov

